

**SPECIAL ISSUE**

**VOLUME II | ISSUE 3 | MAY-JUNE**

# Journal of Culture and Art

**КУЛТУРА И ИСКУССТВО  
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ**

**| 2024**

**ISSN: 2181-4562**



Available online at [www.imfaktor.com](http://www.imfaktor.com)

**IMFAKTOR**  
*Science driven pages*

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3 СОН

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР 3

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE 3

ТОШКЕНТ – 2024

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-3>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал  
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол  
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим  
Козимович  
Ходжаметова Гулчира  
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни  
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус  
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих  
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов  
Фахриддин  
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари  
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз  
Турабович  
Умаров Мамур  
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна  
нутқи” кафедраси доценти

Худоев Ғани  
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси  
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Бердиханова Шахида  
Нурлыбаевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
“Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси” кафедраси  
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон  
Раимқулович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”  
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Суннатиллаев Асатилло  
Суннатович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта  
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Алланбаев Рудакий  
Оринбаевич  
Зиявутдинова Зулфия  
Усеиновна  
Раимова Дилфузахон  
Махаммадсолиевна  
Ботирова Хилола  
Турсунбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-  
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил  
изланувчи (PhD)

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”  
медали соҳиби, профессор в.в.б

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

*“Маданият ва санъат”* журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**O'RINOV Shamshod Komilovich**

*Buxoro davlat universiteti  
"Musiqqa ijrochiligi va madaniyat" kafedrasini  
o'qituvchisi*

**SADULLAYEVA Saodat Sayfiddin qizi**

*"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish  
hamda boshqarish ta'lim yo'nalishi"  
talabasi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11319441>

## IJODKOR SHAXSLAR VA ISTE'DODLARNI YUZAGA CHIQRISH SHAKL VA USULLARI

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomondan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish hamda talaba-yoshlarni badiiy ijodga muhabbat ruhida tarbiyalash va ma'naviy kamolotga yo'naltirish orqali oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirishga erishish hamda iqtidorli yoshlarga o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratib berish bu kabi metodlarlar ochiqdigan.

**Kalit so'zlar:** ijodkor, iste'dod, o'quvchi, strategiya, tanlov, loyiha, intellekt.

## РАСКРЫТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ЛИЧНОСТЕЙ И ТАЛАНТОВ ФОРМЫ И МЕТОДЫ

### АННОТАЦИЯ

Данная статья направлена на обеспечение активного участия молодежи в проводимых в нашей стране масштабных реформах, воспитание здорового и всесторонне развитого поколения, высокодуховного, независимого и свободомыслящего, основательно освоить достижения современной науки, добиться дальнейшего повышения эффективности культурно-просветительской деятельности, проводимой в высших учебных заведениях, последовательно реализуя государственную политику в области искусства и воспитывая студентов в духе любви к художественному творчеству и направляя их к духовному зрелости и раскрыть свой потенциал талантливой молодежи. Создание условий для таких методов открыто.

**Ключевые слова:** творец, талант, ученик, стратегия, выбор, проект, интеллект.

## BRINGING CREATIVE INDIVIDUALS AND TALENTS TO THE SURFACE FORMS AND METHODS

### ANNOTATION

This article is aimed at ensuring the active participation of young people in the large-scale reforms implemented in our country, raising a healthy and well-rounded generation from all sides who are highly spiritual, independent and free-thinking, who have thoroughly mastered the achievements of modern science. to achieve further increase in the efficiency of the cultural and educational activities carried out in higher educational institutions by consistently implementing the state policy on art and educating students in the spirit of love for artistic creativity and directing them to spiritual maturity, and to reveal their potential to talented young people Creating conditions for such methods are open.

**Key words:** creator, talent, student, strategy, choice, project, intelligence.

Bugungi kunda mamlakatimiz poydevori bo'lgan yoshlarning ma'naviy kamoloti dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish, ma'naviy shakllantirish, ruhiy kamolotiga erishuvda esa san'at alohida ahamiyatlidir. Badiiy asar inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi san'at hosilasi. So'z ohangi, ma'nolar asrori turfa holat, vaziyatni teran ifodalashga yo'naltiriladi. Qahramon surati-yu siyratini yoritish, undagi evrilishni yetkazish ijodkordan nozik did, yuksak salohiyatni talab etadi.

Bugun iste'dodli yoshlar so'zning salmog'ini his etishi muhim hisoblanadi. Ular adabiyot, san'at olamida betakror, o'ziga xos dadil hamda teran fikrlash salohiyatiga ega shijoatli avlod shakllanayotganidan dalolat beradi. Yoshlarning she'riyat, nasr namunolari milliy mustaqilligimizning badiiy solnomasini boyitib boradi. Bu iste'dodlar ona yurt tuyg'usini, insonga mehr-u muhabbatini asarlari vositasida anglatishiga umidingiz ortadi.

So'nggi yillarda inson shaxsiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi qahramon ruhiy iqlimlarini, qalbining to'rt faslini tadqiq etish bevosita, uning saviyasini ham keng qamrab olishni taqozo etdi. Keyingi paytda hayotimizdagi o'zgarishlar, mustaqillik sharofati bilan dunyoga chiqish, inson ma'naviy dunyosini ham ongini ham, fikrlashini ham, tubdan o'zgartirib yubordi. Bu mushohadakorlik, teran fikrlash jarayoni faqat ayrim odamlar shaxsidagina ro'y berib qolmay, butun xalq uchun xarakterlidir.

Ijodkorlik - insonning ijodiy qarorlar qabul qilish, tushunish, qabul qilish va tubdan yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati. Kundalik hayotda ijodkorlik o'zini zukkolik - maqsadlarga erishish, atrof-muhit, ob'ektlar va vaziyatlardan g'ayrioddiy tarzda foydalanib, umidsiz bo'lib tuyulgan vaziyatdan chiqish yo'lini topish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Keng ma'noda, muammoni maxsus bo'lmagan vositalar yoki resurslar bilan aniq va mohirona hal qilish. Bu, shuningdek, muammolarga jasur, nostandart yechimlar qobiliyatini ham anglatadi [1].

Iste'dod - nihoyatda zo'r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat. U idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, kuzatuvchanlik benihoya o'sganligida, voqea-hodisalarning yangi qirralarini, ularning zamiridagi murakkab aloqadorlikni kashf etishda ko'rinadi [2].

Yuzaga chiqarish - yoshlar salohiyatini, ijodkorlik qobiliyatlarini keng jamoatchilikka namoyon etish.

Shakl va usullar - (metod yunoncha "metodos") ayrim voqealarni bilish, o'rganish usuli va alohida usul, harakat usuli yoki ko'rinishi.

Bugungi zamonaviy taraqqiyot davrida ijodkor shaxslar va ularning iste'dodlari namoyon bo'lishining mavjud shakllari qanday ko'rinishlarda o'zini namoyon qilmoqda, degan o'rinli savol o'rta chiqishi tabiiy, albatta. Hozirgi zamonda insoniyat hayotining bosh xususiyati muttasil o'zgarishlardan iborat bo'lib qolmoqda. Bu o'zgarishlar misli ko'rilmagan shiddatli sur'atlarda kechayotgani davr va zamonning yana bir xos xususiyatidir.

Ana shu shiddatli o'zgarishlarning bosh sababchisi - axborot ekani esa allaqachon dunyo ommasi tomonidan e'tirof etilgan. Axborot odamni, dunyoqarashlarni, an'ana-yu qadriyatlarni, xalqni, jamiyatni, davlat tutumlarini o'zgartirmoqda. Muloqotlar-u munosabatlarni mutlaqo kutilmagan va favqulodda o'zanlarga burib yubormoqda. Zamondoshlarimizning bugungi kuni, ertasi va istiqboli ularning axborotga, axborot oqimiga munosabatidan kelib chiqib belgilanmoqda. Vaziyat va holatning paradoksal darajada ajabtovurligini qarangi, dunyoni va odamni o'zgartirayotgan axborotning va axborot dunyosining o'zi ham o'zgarishga, yangilanishga yuz tutmoqda.

Chunonchi, ijtimoiy tarmoqlar milliy axborot maydoni minbariga aylangani va shu bilan bog'liq ravishda turfa muammolar vujudga kelayotganiga tabiiy jarayon sifatida qaralmog'i darkor. Avvalo, bu holat keng aholi qatlami uchun mutlaqo yangi voqelik. Mobil telefon imkoniyatlari katta-yu kichikni ommaviy muloqot subyektiga aylantirib ulgurdi hisob.

Xususan, xalq orasida san'atga qalbi oshno bo'lgan minglab yoshlar o'z imkoniyatlaridan foydalangan holda, iste'dod va qobiliyatlarini mobil qurilmalarda suratga olib, ijtimoiy tarmoqlar orasida keng muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Ayni bunday "ko'z ilg'amagan" chinakam iste'dod egalari xalq e'tiboriga tushgan holda o'z ko'rinishlarini televizyon shoularda yanada yoymoqda. Albatta, birinchi o'rinda ijodkor shaxslarning iste'dodlarini namoyon etuvchi qurilma shak-shubhasiz axborot vositalaridir.

Aynan shu axborot imkoniyatlari, aniqrog'i, mobil qurilmalar O'tgan asrda yashagan mashhur Marshall Maklyuen (Kanada) bashorat qilganidek, bugungi kunga kelib, mobil telefondek yangi ommaviy axborot vositasi o'z egalarini o'ziga xos imtihondan o'tkazmoqda [3].

Jumladan, o'z ijod namunalarini ijtimoiy tarmoqlarda nomaqbul tarzda madaniyatimizga xos bo'lmagan shaklda keng jamoatchilikka namoyon etuvchi yoki aksi o'laroq, chinakam shinavanda ovoz sohiblari, haqiqiy san'at ixlosmandlarini kashf etishda asos bo'layotgan ijtimoiy tarmoqlar, OAV, texnika qurilmalari bugungi kunda jamiyat o'rtasida yangicha shakl va usullarda ijodkor shaxslarning paydo bo'lishida keng qatlamni egallagan.

Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatini rivojlantirish bugungi zamon jamiyatining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirish u qadar yengil vazifa emas, chunki iqtidorli odamni topish va undan ham ko'proq uning individual xususiyatlariga muvofiq ta'lim va tarbiya berish juda murakkab jarayondir.

Iqtidorli bolalarni aniqlashni kuzatish, psixologik xususiyatlarini, nutqini, xotirasini, mantiqiy fikrlashini o'rganish asosida boshlang'ich maktabdanoq boshlash kerak bo'ladi. Iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlash, ularni izlash, aniqlash va rivojlantirish maktab faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanishi kerak.

Bugungi davrda yoshlarda aynan shunday mushohadakorlik hamda teran fikrlash, mavjud qobiliyatlarini namoyon etish, bu bilan birgalikda ularni keng jamoatchilikka namuna sifatida ko'rsatish orqali qolgan yosh aholi qatlamida va ularning ota-onalarida ham qiziqishni uyg'otish va bu orqali badiiy ijodning takomillashuvida yuksak samaradorlikka erishish nimalarni talab etadi, degan o'rinli savol paydo bo'lishi tabiiy, albatta:

- Ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarni aniqlash va saralash;
- O'quvchilarning ijodiy ishlari bilan muntazam tanishib borish, ularga ijodiy jihatdan yo'l-yo'riq ko'rsatish;
- Taniqli yozuvchi va shoirlarni jalb qilish orqali madaniyat muassasalarida adabiy-badiiy kechalarni tashkil etish;
- O'quvchilar o'rtasida turli adabiy, ijodiy tanlovlar, festival va boshqa tadbirlar tashkil etish;
- Ijodiy to'garaklar tashkil etish va reja asosida mahorat saboqlarini olib borish;
- O'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish va kitob mutolaasini targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish;

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj, tarbiyasi og'ir bolalarning ma'naviy-ruhiy holatini yaxshilashda badiiy adabiyot va san'at namunalaridan keng foydalanish;

- O'zbek va jahon adabiyotining eng sara durdonalarini targ'ib qilish orqali o'quvchi-yoshlar ongida umuminsoniy va milliy qadariatlarni shakllantirish, yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalash bo'yicha muntazam ravishda ish olib borish;

- Badiiy adabiyot, ijodiy jarayonlarga qiziqtirish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj, tarbiyasi og'ir bolalarning ma'naviy-ruhiy holatini yaxshilashga yordam berish;

- Yorqin iste'dodga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlarni Madaniyat Vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar ta'limi vazirligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan o'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan turli ijodiy tanlovlarga jalb qilish, ularning ijodiy ishlarini adabiy nashrlarga, almanaxlarga tavsiya etish hamda bu orqali ijodkor shaxslar va yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish;

- Iste'doli ijodkor o'quvchilarni atoqli adiblar nomidagi ijod maktablari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish orqali kelajakda ularning ijod maktablarida ta'lim olishlariga motivatsiya berish.

Yuqoridagi shakl va metodlar ijodkor shaxslar va iste'dodlarni yuzaga chiqarish, topish, tanlab olish, saralash, yakka tartibda shug'ullanish, jamoaviy tarzda ijod etish; Iste'dodlar faoliyatini sahnada, keng jamoatchilik qarshisida, ko'rik-tanlovlarga chiqarish va bu borada ularga motivatsiyalar berish ijodkorlarning ijodiy salohiyatini aniqlash hamda rivojlantirishning asosiy shakl va usullarini tashkil etadi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayoni natijasini samarali ko'rsatkichga olib boruvchi qanday shartlar mavjud? Keling ularni quyidagicha tartiblaymiz:

- Ijodiy jamoa tashkilotchilarining har bir a'zosi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning muhimligini anglash va shu bilan birga o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani shakllantirish muammosiga e'tiborni kuchaytirish.

- Iqtidorli bolalar bilan ishlashning uslubiy tizimini yaratish va doimiy takomillashtirib borish.

- Madaniy muassalar tomonidan iqtidorli bolalar bilan ishlash tizimini joriy etishni tashkilot faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirish.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga, birinchi navbatda, ma'lum fazilatlarga ega bo'lgan o'qituvchilarni jalb qilish kerak. Bu kabi mutaxassislar qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerakligini ko'rib chiqamiz:

- Iqtidorli bola uchun o'qituvchi – qiyin vaziyatlarda adekvat javob beradigan, tanqidni qabul qila oladigan, o'zidan ko'ra qobiliyatli va bilimdonroq odamlar bilan ishlashda ruhiy aziyat chekmaydigan shaxsdir.

- O'qituvchining iqtidorli o'quvchi bilan o'zaro munosabati o'quvchi qobiliyatlarini optimal rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi, yordam berish, qo'llab-quvvatlash xarakteriga ega bo'lishi kerak;

- O'qituvchi o'zi qabul qilingan qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lishi lozim;

- O'qituvchi intellektual o'zini-o'zi takomillashtirishga intilishi, o'z bilimini to'ldirish ustida jon-jahdi bilan ishlashi, boshqalardan o'rganishga, o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish bilan shug'ullanishga tayyor bo'lishi kerak [4].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, joylarda ijodkor shaxslar va iste'dodlarni yuzaga chiqarishda mavjud bilimlarni o'zlashtirilishi o'quvchi intellektining rivojlanganlik darajasiga emas, balki o'qituvchi tomonidan o'quv materiallarini o'quvchilarning borliqni tushunish, ma'lumotlarni qabul qilish, o'zlashtirish va anglash strategiyalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda taqdim etilishiga bog'liq. Mana shu shartning bajarilishi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini yanada ko'proq faollashtirishga yordam beradi. Bu bilan birgalikda har bir shaxsning ma'lumotlarni qabul qilish hajmi va ishlash tezligi, u yoki bu xotira tizimining ustunligi va tafakkur jarayonlarining borishi bilan shakl va usullar farq qiladi. Shu sababli har bir o'quvchining ta'lim olish, atrof-muhitni tushunish va tafakkur qilish jarayoni bir biridan farq qiladi.



Ijodkor shaxslar va iste'dodlarni namoyon etishda – har bir o'quvchidagi shu betakrorlikni saqlab qolish va yanada rivojlantirishdan iborat. Buning uchun esa o'quvchilarning xususiyatlari hamda tafakkuri strategiyasidan kelib chiqqan holda ta'lim va amaliyot jarayonini tashkil etish bo'lib, mazkur texnologik usulni rejalashtirishda tashkil etuvchi tomonidan shartlarga rioya qilinishi zarur.

Bu loyihalardan birgina barchamizga tanish bo'lgan “Talabalar teatr studiyasi” ko'rik-tanlovini oladigan bo'lsak, tanlov nizomida oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi (ta'lim yo'nalishi musiqa ta'limi va aktyorlik san'ati bo'lmagan) barcha talaba-yoshlar o'rtasida o'tkazish tartibini belgilaydi. Ya'ni ijodkorlik faqatgina san'at sohasi vakillaridagina emas, o'z iste'dodini namoyon etish istagini bildirgan barcha yo'nalishlardagi talabalarga mo'ljallangan. Bundan maqsad esa talaba-yoshlarni teatr san'atiga muhabbat ruhida tarbiyalash va ma'naviy kamolotga yo'naltirish orqali oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirishga erishish hamda iqtidorli yoshlarga o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratib berish va rag'batlantirishdan iborat.

Tanlovdan ko'zlangan asosiy maqsad: mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomondan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish hamda talaba-yoshlarni teatr san'atiga muhabbat ruhida tarbiyalash va ma'naviy kamolotga yo'naltirish orqali oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirishga erishish hamda iqtidorli yoshlarga o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratib berish va rag'batlantirishdan iborat.

Xususan, Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida o'tkazilayotgan “Talabalar teatr studiyalari” tanlovining 2-bosqichida Buxoro shahridagi 5 ta OTM o'zaro kuch sinashishdi. Buxoro davlat universitetining “Fitrat” talabalar teatr jamoasi faxrli 2-o'rin sohibi bo'ldi.

Bu kabi tanlovlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomondan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish hamda talaba-yoshlarni teatr san'atiga, badiiy ijodga, san'atga muhabbat ruhida tarbiyalash va ma'naviy kamolotga yo'naltirish orqali oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirishga erishish hamda iqtidorli yoshlarga o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratib berish va rag'batlantirishdan iborat.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus doirasida universitet talaba-yoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida iqtidorli talabalar o'rtasida “Talent show” tashkil etiladi. Xususan, qo'shiqchilik san'ati, aktyorlik mahorati, xoreografiya, qiziqchilik san'ati yo'nalishlari bo'yicha talabalar 5 mavsum davomida kuch sinashib, o'z mahoratlarini namoyish etib kelishmoqda.

Tanlovdan asosiy maqsad Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbusni talaba-yoshlar o'rtasida targ'ib qilish, yoshlardagi vatanga, ona zaminga bo'lgan hurmat tuyg'usini yanada shakllantirish, iqtidorli talabalar ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdir.

Yangi O'zbekistonimizda shakllanayotgan, toblanayotgan yangi ijodkorlar avlodi hayot va zamon ko'ndalang qo'yayotgan har qanday muammoning oqilona yechimini topa oladilar, deb ishonamiz. Zero, ijodkor shaxslar – matonatlilar, topqirlar, zukkolar maydoni! Fikrimizcha, talabalar o'zgarimoqdami – o'zgaraylik, raqobat kuchaymoqdami – raqobatbardosh bo'laylik! Muxlislar qalbiga, e'tirof-u e'zoziga olib boruvchi ma'rifat yo'llarini qayta ochaylik!

**ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES**

1. Azatgul Tashmatova “Ijrochilik san’ati tarixi” musiqa oliy ta’lim muassasalari uchun darslik, «Musiq» nashriyoti Toshkent – 2017
2. Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat markazi “Umumiy o’rta ta’lim maktablarining ijodiy-madaniy masalalar bo’yicha targ’ibotchilari uchun uslubiy qo’llanma”, “Zarvaraq” nashriyoti Toshkent – 2022
3. Avlayev O.U, Jo’rayeva S.N, Mirzayeva S.P “Ta’lim metodlari” o’quv-uslubiy qo’llanma, “Navro’z” nashriyoti Toshkent – 2017
4. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi milliy madaniyatini yanada rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” Qarori, 18-noyabr 2018-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son qarori.
6. Mirziyoev Sh. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // “Xalq so‘zi”. 2017-yil 4-avgust.
7. To’ychiyeva.S.Shaxs ijtimoiy faolligi va ma’naviy madaniyat.Toshkent. Milliy ensiklopediya ilmiy nashriyoti.2016.
8. Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat markazi (umumiy o’rta ta’lim maktablarining ijodiy-madaniy masalalar bo’yicha targ’ibotchilari uchun uslubiy qo’llanma) “Zarvaraq” nashriyoti Toshkent – 2022
9. Urinov, Sh K. "THE MAIN CRITERIA OF CULTURAL CENTERS IN THE FORMATION OF CREATIVE ABILITY." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 3.5 (2023): 52-59.

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3 СОН

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР 3

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE 3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)